**JIZZAX VILOYATI FORISH TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2026-yil 6-yanvar | 1-3-53-Q/26 | Forish tuman hokimligi

**Forish tuman “Qoraobdol ota” MFY “Shoxusmon” qishlog‘i hududidagi 22-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti ro‘parasidagi yo‘lga yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida sun’iy notekislik o‘rnatish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi PQ-190-sonli “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish va harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida, shuningdek “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 5-, 6- va $21^1$ -moddalariga asosan

**QAROR QILAMAN**

1. Forish tuman IIBning 2025-yil 20-noyabrdagi 48/42-7-4874-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Forish tuman “Qoraobdol ota” MFY “Shoxusmon” qishlog‘i hududidagi 22-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti ro‘parasida joylashga yo‘lga yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida sun’iy notekislik va yo‘l belgilari o‘rnatilsin.

3. Yevroosiyo davlatlari davlat me’yori GOST R 52605-2006 talablariga muvofiq, mazkur hududda o‘rnatiladigan sun’iy yo‘l notekisliklarining kengligi 40 sm.dan, balandligi esa 7 sm.dan oshmasligi va ular yo‘l qatnov qismi kengligida tashkil etilishiga alohida e’tibor qaratilsin.

4. Tuman “Obodonlashtirish” boshqarmasi (X. Jo‘raqulov) va tuman ichki ishlar bo‘limi Yo‘l harakati xavfsizligi guruhi (T.Muqimov) “Qoraobdol ota” MFY fuqarolar yig‘ini raisi bilan birgalikda sun’iy yo‘l notekisliklarini yo‘l harakati xavfsizligi qoidalariga muvofiq tashkil etish bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

5.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Uzoqov) sun’iy yo‘l notekisliklarini tashkil etishga zarur mablag‘larni ajratsin.

6.Mazkur qaror “Forish tongi” gazetasida e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qaror ijrosi bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov keltirilgan ma’lumotlarning hamda unga asos bo‘lgan hujjatlarning haqqoniyligi va to‘g‘riligi yuzasidan shaxsan javobgar hisoblanadi.

9. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari F.Amirov va tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i B.Naimov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Islamov S.Y**

Forish tumani hokimining
2026-yil 6-yanvardagi
1-3-53-Q/26-son qaroriga
1-ilova

**Forish tuman “Qoraobdol ota” MFY “Shoxusmon” qishlog‘i hududidagi 22-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti ro‘parasidagi yo‘lga yo‘l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida sun’iy notekislik o‘rnatish bo‘yicha**

| T/R | MFY nomi | Qishloq nomi | Joylashtirish joyi PK | Soni | Yo`l belgisi nomi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qoraobdol ota MFY | Shoxusmon qishlog‘i | PK 00+70 | 2 | 1.31. Sun’iy yo‘l notekisligi |